

11

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



Ro'yvatga olindi
№ 485-I/1

2024-yil

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirining 2024-yil
“27” dekabr dagi
485 - sonli buyrug'i bilan
tasdiqlangan.

“Jismoniy madaniyat”

yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarini
qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursining o'quv dasturi

Toshkent – 2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

*Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv dasturi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'limgan yonalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini
Muvofiqlashtiruvchi kengashining*

2024 yil 24.12. dagi 12-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Tuzuvchilar: “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari” moduli: f.f.d., prof. M.M.Qahhorova, yu.f.b., PhD F.B.Maxmudov.
“Oliy ta'limgan normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish” moduli: yu.f.n., prof. V.Topildiyev, yu.f.d., prof. B.I.Ismailov.
“Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar” moduli: t.f.d., prof. D.Irgasheva, Sh.Adashboev, p.f.b., PhD A.Obidov.
“Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish ” moduli: i.f.d., prof. R.Nurimbetov, p.f.b., PhD J.Kusherbayev.
“Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish” moduli: p.f.d., prof. N.A.Muslimov, R.Dj.Ishmuxamedov, A.Turayev.
“Ta'limgan sisatini ta'minlashda baholash metodikalari” moduli: p.f.d., prof. N.A.Muslimov, p.f.d., prof. J.Tolipova, p.f.b., PhD M.Innazarov.
“Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” moduli: prof. U.R.Radjabov., prof. F.T.Miraxmedov., dots. T.B.Zayniddinov.
“Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi” moduli: prof. U.R.Radjabov., prof. F.T.Miraxmedov., dots. T.B.Zayniddinov.

Taqrizehilar: p.f.f.d., dots. T.S.Achilov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti.
p.f.d., prof. M.J. Abdullayev -Buxoro davlat universiteti.

Xorijiy ekspert: p.f.n., prof. J. Bojig – Povlador davlat pedagogika universiteti.

Hamkor tashkilotlar:

*O'quv dasturi Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining qarori bilan tasdiqqa
tavsiya qilingan (2024-yil 30.12.-sonli bayonnomasi).*

Kirish

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzlusiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldagi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiyligi malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari, oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari, pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim sifatini ta’minalashda baholash metodikalari, Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyati, sportda ilmiy tadqiqot asoslari, gimnastika sport turlarini o‘qitish uslubiyati, yengil atletika sport turlarini o‘qitish uslubiyati, sport o‘yinlarini o‘qitish uslubiyati

bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Malaka oshirish kursining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning o‘quv modullari doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtiriladi.

Malaka oshirish kursining o‘quv dasturi quyidagi modullar mazmunini o‘z ichiga qamrab oladi:

1.1. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari.

1.2. Oliy ta’limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish.

1.3. Pedagogik faoliyatda raqamlı kompetensiyalar.

1.4. Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish.

1.5. Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.

1.6. Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari.

1.7. Jismoniy madaniyat nazariyasи va metodikasi.

1.8. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi.

Malakaviy attestatsiya

Kursning maqsadi va vazifalari

Malaka oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning ta’lim sifatini zamonaviy talablarga muvofiq oshirish uchun zarur darajadagi kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, ularning kasbiy bilim, ko‘nikma va mahoratini uzluksiz yangilab borish, takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- “Jismoniy madaniyat” yo‘nalishi bo‘yicha malaka oshirish kursi pedagog kadrlarining kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish;

- Jismoniy madaniyat fani o‘qituvchilarning kreativlik, ilmiy-innovatsion faolligini oshirish;

- Jismoniy madaniyat fanlarini o‘qitish jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali qo‘llash;

- o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘zlashtirish;

- “Jismoniy madaniyat” yo‘nalishi bo‘yicha malaka oshirish jarayonini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

Malaka oshirish kursining o‘quv modullari bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- “Yangi O‘zbekiston” konsepsiysi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillarini;

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini;
- O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” hamda “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida” Qonunlarini;
- O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutSIONALIZmini;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishni;
 - “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbiq etish istiqbollarini;
 - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini;
 - jamiyatning iqtisodiy negizlarini;
 - “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni;
 - Oliy ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;
 - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;
 - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlarini;
 - Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;
 - Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablarni, o‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;
 - oliy ta’lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbazarliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillarini;
 - ta’lim jarayonini raqamli transformatsiyasini;
 - raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini;
 - raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasini;
 - mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini;
 - raqamli ta’lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablarni;
 - meta texnologiyalar tushunchasi, avzalliklari va kamchiliklarini;
 - zamonaviy ta’lim tizimida sun’iy intellekt (AI) ning ahamiyatini;
 - ta’limda sun’iy intellektningdan foydalanish istiqbollarini va xavflarini;
 - bilimlarni sinash va baholashning aqlii tizimlarini;
 - jahonda oliy ta’lim rivojlanish tendensiyalari: umumiylrendlar va strategik yo‘nalishlarni;
 - zamonaviy ta’limning global trendlarini;
 - inson kapitalining iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida rivojlanishida ta’limning yoshdagilahamiyatini;
 - oliy ta’limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingini;

- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarini;
- zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko‘pqirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalarini;
 - universitetlarning zamonaviy modellarini;
 - zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellarini;
 - tadbirkorlik universiteti faoliyatining muhim yo‘nalishlarini;
 - pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini;
 - innovatsion ta’lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llarini;
 - kasbiy kompetensiyalarning mazmun va mohiyatini;
 - kasbiy kompetensiyalar va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini;
 - pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini;
 - pedagogik texnikani shakllantirish yo‘llarini;
 - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar va xalqaro tajribalar hamda ularning kasbiy kometensiyalarni rivojlantirishga ta’sirini;
 - kasbiy kompetetnsiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini;
 - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda uchraydigan to‘siqlarni yechishda, to‘g‘ri harakatlar qilishda pedagogning kompetentlik va kreativlik darajasi, pedagogik kvalimetriyasini;
 - talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning nazariyasini;
 - ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarni;
 - kredit-modul tizimida talabalarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o‘ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalarini;
 - baholash turlari, tamoyillari va mezonlarini;
 - jismoniy madaniyat nazariyasining yetakchi tushunchalari va jismoniy madaniyatning ijtimoiy mohiyatini;
 - jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligini;
 - jismoniy tarbiya vositalari, uslubiyati, tamoyillarini;
 - jismoniy yuklamalar, yuklamalarning tarkibiy qismlarini;
 - yuklamaning koordinatsion murakkabligini;
 - harakatlarga o‘rgatish asoslarini;
 - oddiy texnik harakatlarni;
 - jismoniy tarbiya darsining turlarini;
 - pedagogik tahlil o‘tkazish metodlarini;
 - jismoniy madaniyat darsida qo‘llaniladigan vositalarga tavsifini;
 - jismoniy mashqlarning ta’sirini belgilovchi omillarni;

- jismoniy mashqlarning mazmuni va shaklini;
 - jismoniy mashqlar klassifikatsiyasini;
 - “Jismoniy mashq” tushunchasini;
 - Oliy ta’lim muassasalarida gimnastika sport turlarining o‘rni va ahamiyatini;
 - gimnastika sport turining tasnifi, gimnastika mashqlarini o‘rgatishning vositalari, uslubiyati, tamoyillarini;
 - gimnastika mashqlarining texnikasini o‘rgatish uslubiyatini;
 - gimnastika mashg‘ulotlarini rejalashtirishni;
 - Saf mashqlari, umumrivojlantiruvchi mashqlarni va ularni o‘rgatish uslubiyatini;
 - gimnastika darslarida muhofaza qilish va yordam ko‘rsatishni;
 - gimnastika darslarida havfsizlik texnikasi qoidalari va ko‘rsatmalarni;
 - gimnastik anjomlarda bajariladigan mashqlarni;
 - oliy ta’lim muassasalarida milliy va harakatli o‘yinlarning o‘rni hamda ahamiyatini;
 - milliy va harakatli o‘yinlarning umumiyligi tavsifini;
 - yengil atletikaning yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, ko‘pkurash turlarini nazariy asoslarini;
 - yengil atletika sport mashg‘ulotlarining asosiy vositalari va uslubiyatlarini;
 - umumiy rivojlantiruvchi jismoniy mashqlarni;
 - yengil atletika turlarining texnikasini o‘rgatish asoslarini;
 - nazariy va texnik-taktik tayyorgarlikni;
 - yengil atletika turlari bo‘yicha musobaqalarini o‘tkazish qoidalarni;
 - musobaqa joylariga qo‘yiladigan umumiyligi talablarni;
 - ballarni hisoblash tartibini;
 - yopiq binolarda o‘tkaziladigan musobaqalarning o‘ziga xosligini;
 - musobaqa qoidalari, nizomi, turlarini;
 - musobaqalarning bekor qilinishi, talabnomasi va e’tirozlar va musobaqa o‘tkazadigan tashkilotlarini;
 - Oliy ta’lim muassasalarida sport o‘yinlarining o‘rni va ahamiyatini;
 - sport o‘yinlari tasnifi, sport o‘yinlari texnikasi va taktikasiga o‘rgatishning vositalari, uslubiyati, tamoyillarini;
 - sport o‘yinlarida hujum va himoya texnikasining tasniflanishini;
 - sport o‘yinlari qoidalari, sport o‘yin maydonlari, sport o‘yinlari bo‘yicha musobaqalarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasini;
 - Oliy ta’lim muassasalarida kurash turlarining o‘rni hamda ahamiyatini;
 - kurash turlarining umumiyligi tavsifi, turlarini;
 - Oliy ta’lim muassasalarida sport mahoratini oshirish fanining o‘rni hamda ahamiyatini;
 - sport mahoratini oshirishning umumiyligi tavsifini ***bilishi*** kerak.
- Tinglovchi:**

- “O‘zbekiston-2030” strategiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini yoritib berish;
- O‘zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarini tahlil etish va baholash;
- yangi O‘zbekistonning ma’naviy va madaniy tiklanish dasturlari asoslarini o‘zlashtirish;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o‘quv rejalarini va fan dasturlarini takomillashtirish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyatini yoritib berish;
- multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik mayeriallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash;
- masofiviy ta’lim platformalari uchun video kontent yaratish;
- Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalanish;
- raqamli ta’lim resurslari sifatini baholash;
- pedagogik jarayonda sun’iy intellektning rolini tahlil qilish va ahamiyatini ochib berish;
- ta’lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash;
- OTMlarni reyting bo‘yicha ranjirlash;
- jahon universitetlari reytingini tahlil etish va baholash;
- universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish;
- tadbirkorlik universitetiga o‘tish uchun zarur bo‘ladigan o‘zgarishlarni aniqlash;
- Universitet 1.0 dan Universitet 3.0 modeliga o‘tish borasidagi muammolarni aniqlash;
- zamonaviy tadbirkorlik universiteti modeli tamoyillarini o‘zlashtirish;
- pedagoglarning kreativ potensiali tushunchasi va mohiyatini ochib berish;
- pedagoglar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini qo‘llash;
- o‘qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning axamiyatini yoritib berish;
- tinglovchilar diqqatini o‘ziga tortish usullaridan foydalanish;
- kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish yo‘llarini tahlil etish;
- kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘siqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish;
- talabalarning o‘quv auditoriyadagi faoliyatini baholash;
- talabalarning kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o‘quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ini nazorat qilish;
- baholashning miqdor va sifat tahlilini amalga oshirish;
- mashg‘ulot yuklama shiddatini nazorat qilish;

- gimnastika turidan to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish;
- gimnastika musobaqalarini tashkil qilish va o‘tkazish;
- yengil atletikachilarning umumiy-maxsus jismoniy sifatlarini rivojlantirish;
- ma’naviy va irodaviy hislatlarni tarbiyalash;
- rekord va yuqori ko‘rsatkichlarni qayd qilish;
- musobaqa natijalarni baholash (shaxsiy va jamoaviy);
- sport o‘yinlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni nazorat qilish va rejalashtirish.
- musobaqalarni boshqarish;
- musobaqa turlari bo‘yicha sport o‘yinlari musobaqalarni o‘tkazish;
- musobaqalarni rejalashtirish;
- sport o‘yinlarida hakamlik uslubiyati (hakamlik imo-ishoralari)

ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o‘zgarishlarni tahlil qilish va ularning zarurligini muhokama etish;
- O‘zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini ochib berish;
- mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora tadbirlar bilan ishslash;
- davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslarini o‘zlashtirish;
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari, Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
- o‘quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini tahlil etish;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro‘yhatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibidan samarali foydalanish;
- an’anaviy va raqamli ta’limda pedagogik dizaynning xususiyatlarini ochib berish;
- onlayn mashg‘ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini o‘zlashtirish;
- pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish;
- raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish;
- meta texnologiyalarni ta’limga samarali integratsiya qilish yo‘llaridan foydalanish;
- ta’limdagi sun’iy intellektning xususiyatlarini muhokama qilish;

- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
- OTM reytingiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish;
- universitetlarning zamonaviy modellarini o'rganish;
- OTM bitiruvchilarli va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;
- professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini tahlil etish;
- innovatsion ta'limga muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
- pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hususiyatlarini tahlil etish va baholash;
- ijtimoiy va kasbiy tajribaga asoslangan intellektual mashqlarni ishlab chiqish;
- o'quv jarayoni ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiyo do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, tinglovchilarning ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish, tinglovchilarning hamkorlikda ishlashlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirish;
- tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini o'rganish, tanishish;
- kasbiy kompetetnsiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini ochib berish;
- ta'limga sifatiga ta'sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, professor-o'qituvchilarning salohiyati va o'quv-metodik ta'minot)ni tahlil etish va baholash;
- talabalarning o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholash;
- talabalarning o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholashda o'quv topshiriqlari (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasidan samarali foydalanish;
- pedagogik tahlil o'tkazish;
- sport turlarini amaliy mashg'ulotlarini tashkil qilishda harakatli o'yinlardan foydalanish;
- sport turlaridagi maxsus mashqlarni o'rgatishda harakatli o'yinlardan foydalanish;
- kurash turlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarini tashkil qilish;
- kurash turlaridagi maxsus mashqlarni o'rgatish;
- sport turlari bo'yicha mahorat oshirishda maxsus mashqlarni o'rgatishni takomillashtirish **malakalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi mohiyati bilan tanishish;
- "Yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlarini amaliyatga tadbiq etish;
- yoshlar ma'naviyatini oshirish bo'yicha davlat dasturlari yuzasidan muhokama tashkil etish va ulardan samarali foydalanish;

•O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;

•Davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish amal qilish va ularni ijrosini ta’minlash;

•oliy ta’lim tizimida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilganlik holatlarini aniqlash, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan sohalarni oldini olish va bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta’minlash (nomzodlarni tekshirish tartibi), ushbu sohada qo‘llanishi lozim bo‘lgan xorij tajribasidan foydalanish;

•raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini o‘quv jarayoniga faol tatbiq etilishini tashkil etish;

•raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi asoslarini o‘zlashtirish;

•raqamli ta’lim muhitida pedagogik dizaynga oid innovatsiyalarni amaliyatga tatbiq etish;

•meta texnologiyalarni tahlil qilish va ularning ta’limdagi ta’sirini ochib berish;

•sun’iy intellektning asosiy xususiyatlarini asoslab berish;

•universitetlarning xalqaro va milliy reytingini baholash;

•OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarni tijoratlashtirish yo‘llarini tahlil etish va amaliyatga tadbiq etish;

•«Amaliyotchi professorlar» (PoP, Professor of Practice) modelini qo‘llash;

•professor-o‘qituvchilarining tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini yoritib berish;

•pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini amaliyatga tadbiq etish;

•pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik trayektoriyalarini ishlab chiqish;

•kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘sislarning xilma-xilligi va o‘ziga xos xususiyatlari, sabablarini amaliy tomonlarini yoritish, ularni yechish bosqichlarini guruh bilan birgalikda aniqlash;

•talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash;

•talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron monitoring tizimini yuritish;

•talabalarning ta’limiy (o‘quv predmetlari), tarbiyaviy (ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar) va rivojlantiruvchi (ilmiy-tadqiqot ishi, start-up loyihalar) maqsadlarini baholash;;

•o‘lchash natijalariga statistik qayta ishlov berish;

- gimnastika bo‘yicha ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish hamda o‘tkazishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- harakatli o‘yinlar bo‘yicha ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish hamda o‘tkazishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- yengil atletika sportida qo‘llaniladigan maxsus atamalarning qisqacha izohli lug‘atidan foydalanish;
- yengil atletika bo‘yicha ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish hamda o‘tkazishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- kurash turlari bo‘yicha ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish hamda o‘tkazishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- sport mahoratini oshirish fani bo‘yicha ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish hamda o‘tkazishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ***kompetensiyaliga*** ega bo‘lishi lozim.

Kurs hajmi

Malaka oshirish kursi 144 soatni tashkil etadi. Bunda 144 soati to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) malaka oshirish shaklida ishdan ajralgan holda amalga oshiriladi.

Attestasiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan kurs tinglovchilariga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldaggi “Jismoniy madaniyat va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 355-son qarori “Jismoniy madaniyat va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom”ning 4-ilovasi bilan tasdiqlangan davlat namunasidagi malaka sertifikati beriladi.

“JISMONIY MADANIYAT” YO‘NALISHI BO‘YICHA MALAKA OSHIRISH KURSI O‘QUV MODULLARINING MAZMUNI

1.1. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari

“Yangi O‘zbekiston” konsepsiysi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillari. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayoni va orttirilgan tajriba. “O‘zbekiston-2030” strategiyasining ahamiyati. Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va aholi turmush darajasini oshirish. Aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish. Aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish va xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish. Mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash.

Huquqiy davlat va qonun ustuvorligi. Siyosiy va huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi tizimining takomillashtirilishi. Qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish. O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi

asosiy o‘zgarishlar va ularning zaruriyati. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari. Jamiatning iqtisodiy negizlari. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalari. Davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslari.

2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi. “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbiq etish istiqbollari.

Ijtimoiy rivojlanish va inson kapitali, yangi avlod kadrlarini tayyorlash. Ayollar va yoshlarni qo’llab-quvvatlash, gender tenglik va yoshlar siyosati. Yoshlarning mamlakat rivojidagi roli. Yoshlar ma’naviyatini oshirish bo‘yicha davlat dasturlari.

Milliy ma’naviyat va qadriyatlar, yangi O‘zbekistonning ma’naviy va madaniy tiklanish dasturlari. Global jarayonlar va O‘zbekistonning o‘rni, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy va iqtisodiy aloqalari. “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish. Mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora tadbirlar.

1.2. Oliy ta’limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish.

Oliy ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiyligi tavsifi. Oliy ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ - huquqiy xujjatlar tushunchasi. Normativ-huquqiy xujjatlarning turlari. Normativ huquqiy xujjatlarga qo‘yiladigan talablar. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. Ta’lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi va uning mohiyati. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta’lim tizimiga oid farmonlari va qarorlari. Oliy ta’lim sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning turlari. Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar. Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga oid buyruqlari. Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablar. O‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullari. OTMlarning lokal xujjatlari (Ustav, Ichki tartib qoidalar).

Meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlari. Ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalarini va fan dasturlarini ishlab chiqish. Xorijiy tajribalar asosida Malaka talablari, o‘quv rejalarini va fan dasturlarini takomillashtirish.

Oliy ta’lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillari.

Oliy ta’lim tizimida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilganlik holatlarining ko‘rinishi, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan sohalar, ularni oldini olish va bartaraf etish uchun qo‘llanilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyati, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta’minalash (nomzodlarni tekshirish tartibi), ushbu sohada qo‘llanishi lozim bo‘lgan xorij tajribasi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyati, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro‘yhatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibi.

1.3. Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar

Ta’lim jarayonini raqamli transformatsiyasi. Pedagogning raqamli kompetentligi va uning tarkibiy tuzilmasi. Raqamli didaktika va uning asosiy tamoyillari. Raqamli ta’lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablar. Raqamli ta’lim resurslari sifatini baholash.

Raqamli ta’lim muhitida pedagogik dizayn. Mediasavodxonlik va xavfsizlik. An’anaviy va raqamli ta’limda pedagogik dizaynning xususiyatlari. Raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi. ADDIE pedagogik dizayn tushunchasi. UX-dizayn. Internetdagi turli manbalar bilan ishlashda maxsus norma va qoidalarga rioya qilish: mediasavodxonlik, mualliflik huquqi, axborot xavfsizligi. Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullari.

Raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlari. Raqamli ta’lim resurslaridan (RTR) foydalanish. RTRni tanlash, elektron kutubxonalar bilan ishlash, ta’lim oluvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ochiq o‘quv platformalarida ommaviy onlayn kurslarni tanlash.

Multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik mayeriallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash. Pedagogik faoliyatda bulutli xizmatlardan (Google, H5P, Canva, figma) foydalanish. Bulutli xizmatlardan foydalanib infografika, videoma’ruza va multimedia vositalarini o‘z ichiga qamrab olgan interaktiv taqdimot yaratish, animatsiya effektlarini o‘rnatish, giperhavolalar yordamida taqdimot namoyishini boshqarish.

Masofiviy ta’lim platformalariga videokontent yaratish: Onlayn video muharrirlardan (AdobePremiere Pro, Davici Resolve, FinalCut) foydalangan holda audio va video montaj qilish. Taklif etilgan muharrirdan foydalanib, tanlangan mavzu bo‘yicha video yozish, tahrirlash va saqlash.

Onlayn mashg‘ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish. Onlayn mashg‘ulotlarni tashkil etishda vebinar xizmatlari (Zoom, Yandeks.Telemost Google Meet va b.) bilan ishlash.

Meta texnologiyalar tushunchasi, avzalliklari va kamchiliklari. Meta texnologiyalarni tahlil qilish va ularning ta'liddagi ta'siri. Meta texnologiyalarni ta'limda samarali integratsiya qilish yo'llari.

Zamonaviy ta'lif tizimida sun'iy intellekt (AI) ning ahamiyati. Ta'liddagi sun'iy intellektning xususiyatlari. Sun'iy intellektning asosiy xususiyatlari. Ta'lif sohasida sun'iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari. Pedagogik jarayonda sun'iy intellektningning roli. Ta'lifda sun'iy intellektni qo'llashning asosiy yo'nalishlari. Bilimlarni sinash va baholashning aqlii tizimlari. Ta'lifda sun'iy intellektningdan foydalanish istiqbollari va xavflari.

1.4. Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish.

